

e-mail: info@uzairways.com
tel: +998 (78) 140-46-23
fax: +998 (71) 236-75-00



**UZBEKISTAN
AIRWAYS**

www.uzairways.com

Aksiyadorlik jamiyati | Joint-Stock Company

20 26-y. «20» 08

№ 2.3-473/2



TASDIQLAYMAN
Ishlab chiqarish bo'yicha
Boshqaruv Raisining
Birinchi o'rinbosari v.v.b.

U.A. Xusanov

«20» avgust 2026y.

TEXNIK TOPSHIRIQ

«Uzbekistan Airways» AJ reyslarida havo kemalarida foydalanish uchun aviatsiya konteynerlari va palletlarini (ULD) ta'mirlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Ijrochining eng maqbul taklifini tanlash tanloviga.

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar ro'yxati	Tavsifi
1.	Tovar (xizmat) nomi	«Uzbekistan Airways» AJ havo kemalarida bagaj, yuk va pochta tashishda foydalaniladigan quyidagi turdagi aviatsiya yuk konteynerlari (ULD) va aviatsiya palletlarini texnik ko'rikdan o'tkazish, diagnostika qilish, ta'mirlash va tiklash xizmatlarini ko'rsatish: AKE (60.4 x 61.5 inch); DPE (60.4 x 47.0 inch); DQF (60.4 x 96.0 inch); PMC (96.0 x 125.0 inch); FQA (60.4 x 96.0 inch).
2.	Xarid qilish uchun asos	Ishlab chiqarish zarurati hamda 2026-yil uchun Yer usti xizmatlarini tashkil etish Departamentining xaridlar reja-jadvali.
3.	Umumiy ma'lumot	Aviatsiya konteynerlari va palletlari havo kemalarida bagaj, yuk va pochta joylashtirish, mahkamlash va tashish uchun mo'ljallangan yuklarni qadoqlash vositalari (ULD) hisoblanadi. Foydalanish jarayonida aviatsiya konteynerlari va palletlari mexanik shikastlanish, eskirish, deformatsiya, panellar, profillar, qulflash moslamalari, mahkamlash elementlari, to'rlar, pol va boshqa konstruktiv qismlarning shikastlanishiga uchrashi mumkin. Ijrochi ularning ekspluatatsion xususiyatlarini tiklagan holda sifatli ta'mirlashni hamda ularning «Uzbekistan Airways» AJ havo kemalarida kelgusida xavfsiz foydalanish imkoniyatini ta'minlashi lozim.
4.	Tovarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish muddatlari	Xizmatlar shartnoma amal qilish muddati davomida ko'rsatiladi. Muayyan aviatsiya konteynerlari va palletlarini ta'mirlash uchun topshirish Buyurtmachining buyurtmanomalari asosida amalga oshiriladi. Har bir

4.	Tovarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish muddatlari	birlikni ta'mirlash muddati shikastlanish xususiyati va murakkabligiga qarab belgilanadi, biroq Buyurtmachining shartnomasi/buyurtmanomasida belgilangan muddatdan oshmasligi lozim. Ishlab chiqarish zarurati yuzaga kelganda, shoshilinch ta'mirlash ishlari Buyurtmachi bilan kelishilgan muddatlarda Ijrochi tomonidan bajarilishi lozim.
5.	Asosiy topshiriq	Ijrochi aviatsiya konteynerlari va palletlarini qabul qilish, dastlabki texnik ko'rik va nuqsonlarni aniqlash, shikastlanish xususiyati va darajasini belgilash, ta'mirlash ishlarining ro'yxatini Buyurtmachi bilan kelishish, ta'mirlash va tiklash ishlarini bajarish, shikastlangan detallar va elementlarni almashtirish, geometrik shakli va konstruktiv yaxlitligini tiklash, mexanizmlar va mahkamlash moslamalarining ishlashini tekshirish, bajarilgan ta'mirlash ishlarining sifatini nazorat qilish hamda soz holatda Buyurtmachiga topshirishni ta'minlashi shart. Ta'mirlash xizmatlari ro'yxati: – konteynerning zaxira pardasini almashtirish (AKE, DPE); – konteynerning zaxira pardasini almashtirish (DQF); – konteynerning shikastlangan panelini (yon va ichki panellar) 10 sm gacha ta'mirlash (barcha o'lchamlarda); – konteynerning to'liq shikastlangan panelini almashtirish; – konteyner asosini ta'mirlash (qisman yoki to'liq); – palletni har 10 sm bo'yicha ta'mirlash (barcha o'lchamlarda); – konteyner karkas ustunlarini ta'mirlash (qisman yoki to'liq); – konteyner furniturasini almashtirish (qulflash moslamalari, tasma, cho'ntak, yorliq, dastaklar, markirovka va parchin mixlar); – pallet burchakliklari (1 dona); – konteyner burchakliklari (1 dona).
6.	Buyurtmachi	«Uzbekistan Airways» AJ. Buyurtmachining mas'ul tarkibiy bo'linmasi — Yer usti xizmatlarini tashkil etish Departamenti (YXTD).
7.	Ijrochiga talablar qo'yiladigan	Ijrochi: 1) aviatsiya konteynerlari va palletlarini ta'mirlash uchun zarur moddiy-texnik resurslar, uskunalar va asboblarga ega bo'lishi; 2) aviatsiya konteynerlari va palletlarini ta'mirlash bo'yicha tegishli tajribaga ega malakali xodimlarga ega bo'lishi; 3) shu kabi xizmatlarni ko'rsatish tajribasiga ega bo'lishi; 4) tegishli ULD turlari ishlab chiqaruvchilarining talablari va amaldagi soha standartlariga rioya qilishi; 5) ta'mirlash jarayonida sifatli hamda texnik talablarga javob beradigan materiallar, butlovchi qismlar va ehtiyot qismlardan foydalanishi; 6) bajarilgan ishlar sifatini nazorat qilishni ta'minlashi; 7) zarur hollarda o'rnatilgan butlovchi qismlarning sifati va yaroqliligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi; 8) mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilishi;

7.	Ijrochiga talablar	9) Buyurtmachi tomonidan topshirilgan ULDlarning ta'mirlash davrida saqlanishini ta'minlashi; 10) Buyurtmachining yozma rozilgisiz konstruktiv o'zgartirishlar kiritmasligi shart.
8.	Xarid qilinadigan tovar, ish va xizmatlar hajmi	Xizmatlar hajmi Buyurtmachining amaldagi ehtiyoji hamda shartnoma amal qilish muddati davomida Ijrochiga yuboriladigan buyurtmanomalar asosida belgilanadi. Ishlarning aniq ro'yxati va hajmi nuqsonlarni aniqlash natijalariga ko'ra belgilanadi va Buyurtmachi bilan kelishiladi.
9.	Alohida shartlar	1. Barcha ta'mirlash ishlari faqat nuqsonlarni aniqlashdan so'ng amalga oshiriladi. 2. Ta'mirlash jarayonida aniqlangan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va qiymati Buyurtmachi bilan oldindan kelishilishi lozim. 3. Ijrochi o'ziga topshirilgan ULDlarning saqlanishi uchun javobgar hisoblanadi. 4. Ta'mirlash yakunlangach, Ijrochi sifat nazoratini o'tkazishi va bajarilgan ishlar to'g'risidagi hujjatni Buyurtmachiga taqdim etishi shart. 5. Ta'mirlangan ULDlar tegishli tur uchun belgilangan texnik talablarga javob berishi va keyingi foydalanish uchun yaroqli bo'lishi lozim. 6. Tegishli hujjatlar bilan sifati tasdiqlanmagan materiallar va butlovchi qismlardan, agar bunday hujjatlar texnik talablarda nazarda tutilgan bo'lsa, foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. 7. Buyurtmachi tomonidan Ijrochining aybi bilan yuzaga kelgan kamchiliklar aniqlangan taqdirda, Ijrochi ularni kelishilgan muddatda o'z hisobidan bartaraf etishi shart. 8. Ijrochi ishlarni bajarish jarayonida aviatsiya xavfsizligi va aeroport hududidagi ichki tartib talablariga rioya qilishi shart. 9. ULD konstruksiyasini o'zgartirish bilan bog'liq barcha ishlar faqat Buyurtmachining oldindan yozma roziligi bilan va zarur hollarda ULD ishlab chiqaruvchisi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.
10.	To'lov shartlari, hisob-kitob tartibi va muddatlari	To'lov amalda bajarilgan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan ishlar uchun hisob-faktura hamda bajarilgan ishlar dalolatnomasi asosida, oldindan to'lovsiz, Ijrochining hisob raqamiga mablag'larni naqdsiz shaklda o'tkazish yo'li bilan Buyurtmachi tomonidan tegishli hujjatlar imzolangan kundan boshlab 10 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqdi:

YXB YXTD mutaxassisi
(lavozimi)

G'offorov A.A.
(F.I.Sh. va imzo)

Kelishildi:

Yer usti xizmatlarini tashkil etish

Departamenti back-office bo'yicha

Direktor o'rinbosari

(lavozimi)

ДОКУМЕНТ ПОДПИСАН
ЭЛЕКТРОННОЙ ПОДПИСЬЮ
Сертификат a6f5f210135e6e7bc7806fa6f0cdb11f0c3cc5e0
Владелец **KULIK OXSANA SERGEYEVNA**
Действителен с 03.02.2026 по 03.02.2028

Kulik O.S.
(F.I.Sh va imzo)